

O'RTA OSIYO VA QADIMGI YUNON MIF VA AFSONALARI TAHLILI

Abdunazarova O'raltosh

Yo'Idosheva Feroza

Termiz davlat universiteti talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rtta Osiyo va Qadimgi yunon mif va afsonalari ularning madaniy, tarixiy, va falsafiy jihatlari badiiy talaqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** Mif, afsona, sig'inish, xudolar, ilohlar, afsonaviy, mifologik, samoviy, obraz, ibtidoiy.

Mif (yunoncha. “mythos” — afsona, rivoyat, asotir) — qadimgi odamning borliq, olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarining sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Qadimgi odamning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida ifodalagan va avloddan avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan, jonli, og'zaki ijob orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Mifologik tasavvurlar tizimi ibtidoiy udum va marosimlarning mag'zini tashkil etuvchi ramziy xatti-harakatlardan iborat ritual o'yinlar sifatida ham namoyish qilingan. Miflar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ibtidoiy miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar); 2) samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar); 3) antropogenik miflar (g'ayrioddiy hislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar); 4) sig'inish miflari (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq, masalan, suv, o'simlik, olovga sig'inish haqidagi miflar); 5) etnogenetik miflar (urug'qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; masalan, 92 o'zbek urug'larining paydo bo'lishi haqidagi mif); 6) kalender miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar, masalan, ayamajuz, ahman-dahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar); 7) esxatologik miflar (olamning intihosi haqidagi, masalan, oxirzamon to'g'risidagi mif). Ezgulik kuchlarining zulmatni o'ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o'zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim

rol o'ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so'z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so'z san'atining turli janrlariga singib ketgan.

O'rta Osiyo xalqlari dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zlarining eng qadimgi va boy madniyatiga, adabiy tarixiga ega. Grek, Xind, Xitoy, Arman tarixchilarining, Rus va Evropa olimlarining asarlarida O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi madniyati va og'zaki ijodi to'grisida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. O'rta Osiyo xalqlarining madaniyatini, og'zaki ijodini o'rganishda rus olimalridan A.A.Kushakevich, N.Lyapunova, V.Vasilev, E.F.Kal, A.A.Divaev, A.N.Samoylovich, V.V.Rallov, V.V. Bartold, N. Volniskiy, N.P.Ostoumov kabilarning xizmatlari kattadir. Y.G'ulomov, V.Shishkin va S.P.Tolstov kabi mushxur arxeolog olimlarning O'zbekiston territoriyasida olib borgan arxeologik qidiruv ishlari ham xalqimizning eng qadimiy va boy madaniy merosga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Arxeologik qazilmalar natijalari eramizdan avvalgi minginchi yillardayoq bu hududlarda odamlar istiqomat qilganliklarini isbotlaydi. Eramizgacha bo'lgan O'rta Osiyoda (Xorazm, Amudaryo, Zarafshon vohalarida) yashagan xalqlarning tili, urf-odatlari va madaniyati bir-biridan katta farq qilmagan. O'rta Osiyo hududida yashagan qabilalarning bir qismi ko'chmanchilik bilan hayot kechiradigan bo'lsa, ikkinchi bir qismi o'troq holda yashagan. Ko'chmanchilik bilan hayot kechirganlari chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullangan bo'lsalar, o'troq holda yashaganlari dehqonchilik, hunarmandlik bilan mashg'ul bo'lganlar. Davrlar o'tishi bilan xalq sun'iy sug'orish, inshoot ishlarini keng yo'lga qo'ya boshlagan.

Ibtidoiy kishi tasavvurida tabiatda unga do'st va dushman bo'lgan ikki xil kuch mavjud. Ana shu tasavvur zaminida turli miflar, afsonalar paydo bo'lgan. Bu haqida A.M.Gorkiy so'zlagan nutqida quyidagilarni aytgan edi: "Qadimgi ertaklar, miflar va afsonalarning ma'lum ekanligiga shubha qilmayman, ammo men bu ertak, mif va afsonalarning asosiy mag'zini chuqurroq tushunishni istardim. Bularning asosiy g'oyasi qadimgi davrlardagi mehnat kishilarning yukini engillashtirishga, ularning ish unumini oshirishlariga, to'rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlariga qarshi qurollanishlariga hamda so'z kuchi—"avrash", "afsun" yo'li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo'lgan hodisalarga ta'sir etishlariga qaratilgan".

Shunday qilib, mif kishilarning zaif tomonlarinigina emas, balki ularning kuch-qudrati va orzu-armonlarini ham fantaziya asosida tasvirlaydi, mujassamlashtiradi, u poeziya va san'atning ravnaq topishiga zamin

yaratadi. Shuning uchun ham qadimgi mif, afsonalarni o'rganish M.Gorkiy yozganidek: "Insonlarga dushman bo'lgan tabiat hodisalari, stixiyalarga ta'sir qilish istagi" qanday bo'lganligini yaqqol tasavvur qilishga imkon beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi mif va afsonalarda ,asosan, yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat o'rtasidagi kurash tasvirlanadi. Ko'pchilik mifologik obrazlar mana shu ikki kuch o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi. Miflarda hikoya qilinishicha, ikki olam ya'ni yaxshilik va yomonlik olami bor. Yaxshilik olami Axura Mazda (Xurmuz) yomonlik olamiga Angra Manyu (Axriman) boshchilik qiladi. Go'yo 3000 yil mobaynida bu ikki olam bir-biri bilan to'qnashmagan. Yaxshilik va Nur olamini bilib qolgan Axriman unga qarshi kurash ochmoqchi bo'ladi. Xurmuz bu kurashning oldini olib, ikkinchi uch ming yillikda osmon, yer, suv, o'simlik, hayvonlar va boshqalar hamda birinchi insonni yaratdi. Shundan so'ng uchinchi davr (6000-8999) kurash davri boshlandi. Yer yuzi turli kuchlarning to'qashuvi makoniga aylandi. Axriman birinchi insonni o'ldirgan bo'lsa ham, lekin kishilik urug'ini yo'qotib yubora olmaydi. To'rtinchi davr (9000-11999)da yaxshilik va kuch nurlari yomonlik va zulmat ustidan g'alaba qozonadi. Ana shu ikki kuch o'rtasidagi kurash xalq og'zaki ijodida Kayumars, Siyovush, Baxman va Doro, Mitra, Anaxita, Gerasp kabi afsonaviy va mifologik obrazlarda mujasamlashgan.

Yunon mifologiyasiga ko'ra, olamning yaralishi 3 ta asosiy bosqichlardan iborat: dunyo qanday yaratilganligi, birinchi xudolar va odamlarning paydo bo'lishi haqidagi dastlabki hikoyalarni o'z ichiga olgan davr. Bu davr afsonalarida Xaos, Gaiya, Yerdan so'ng, tirik mavjudotlar uchun unumdar va xavfsiz makon qanday paydo bo'lganligi, Tartarus (spektral olam) Eros bilan (muhabbatning hayotiy kuchi) hosil bo'lganligi haqida hikoya qilinadi. Keyin zulmat (Erebos), tun (Nix), samoviy va yerdagi yorug'lik (Eter va Hemera) va osmon (Uran) paydo bo'ldi. Ulardan birinchi samoviy sulolani tugatgan boshqa xudolar va ilohlar paydo bo'ldi, masalan, Gipnos (uyqu), Moiralar, Sikloplar va Gekatonchirlar (50 boshli hayvonlar). Mana shu bosqichda xudolar o'rtasidagi birinchi to'qnashuvlar paydo bo'la boshladi. To'qnashuvlar Yunon mifologiyasida taniqli xudolardan bo'lgan ikkinchi sulolaning paydo bo'lishiga olib keldi. Zevsning qizi Afina birinchi odamning yaratuvchisi bo'lgan. Xudolar va odamlar asri ushbu bosqichda xudolardan odamlar ko'paya boshlaydi, xuddi Afrodita , Anislar singari va odamlar xudolar haqida xabardor bo'lib, ular bilan to'qnashuvlarni boshlaydilar. Prometey ilohiy olovni o'g'irlagani bunga yaqqol misoldir.

Qahramonlik davri - bu Troya urushi kabi yarim xudolar va odamlar haqidagi hikoyalarning to'plami. Ushbu davrda buyuk xudolarning obro'si yo'qoladi.

Qadimgi yunon miflari, barcha xalqlarning adabiyoti singari yunon adabiyoti ham og'zaki xalq ijodi zaminida paydo bo'lgan. Yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan bo'lsa ham, shularga, asosan, qadimda yunon xalqining anchagina boy og'zaki adabiyoti bo'lganligini aniqlash mumkin. Ibtidoiy jamoa kishilarining tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi afsona va asotirlar yig'indisi qadimgi yunon mifologiyasini tashkil etadi. Uyg'onish davri (XIV-XVII a.) Ovrupa ilm-u adabiyotida antik qahramonlarga qaytish, ularga murojaat qilish kuzatiladi. O'qimishli insonlar tilida ilohlar, qahramonlarning nomlari tez-tez takrorlanadi. Ularni yod etish, o'rganish, ularga taqlid qilish rusumga aylanadi. Odamlarning tilida iloh Mars urush, Venera (Afrodita) muhabbat, iloha Nemezida qasos, Minerva donishmandlikning ramziga aylanadi. Bu hol rus adabiyotiga ham ko'chgan. Chunonchi, A.S.Pushkin o'z she'rlarida ko'p bor san'at homiysi Apollonga murojaat etadi.

Antik davr madaniyati, jumladan, yunon mifologiyasining jahon xalqlari taraqqiyotiga, san'at-u adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri juda katta. Lekin aytish joizki, yunon miflari ham yo'q joydan paydo bo'lgan emas, balki u ham o'z vaqtida Sharq mifologiyasi, xususan, shumer madaniyati, mifologiyasi bulog'idan yetarlicha suv ichgan. Afsuski, shu choqqacha bu tarixiy haqiqat ko'zdan panada qolib keldi. Chunonchi, yunon mifologiyasida uchraydigan ayrim mavjudodlar ildizlarini shumer adabiyotida uchratamiz. Misol uchun, yunonlarning boshi insonniki, tanasi otniki bo'lgan kentavri yoki boshi ho'kizniki, tanasi insonniki bo'lgan menotavriga o'xhash mavjudodga shumerlarning "Bilgamish" dostonida duch kelamiz. Bilgamishni jazolash uchun ilohlar tomonidan loydan yasab yuborilgan Eabanining ham boshida shoxi, orqasida dumি bo'lib, yarim odam, yarim hayvon tarzida tasvirlanadi. Bunday o'xhashliklarning faqat tasodifga yo'yib bo'lmaydi. Shunga qaramay, yunon miflarining zamonaviy inson tasavvuri va tafakkuriga ko'rsatgan ta'sir daraja xalqlarining totemizm, animizm, fetishizm bilan bog'liq qarashlari yaqqol ifodalangan.

Mifning paydo bo'lishi nafaqat olamni, ayni paytda, insonning o'z-o'zini anglashga bo'lgan urinishi bilan ham bog'liq hodisa edi. Mif-afsonalar yurtma-yurt kezib yuradigan qo'shiqchilar tomonidan ijro etilgan. Ularni yunonker aedlar deb atashgan. Aedlar afsonalardan tashqari, turli madhiyalar va qo'shiqlarni ham ijro etishgan. Mif, qo'shiq va madhiyalar esa

zamonlar o'tishi bilan Homer, Hesiod kabi ko'plab shoirlar tomonidan ulkan dostonlarga aylantirilgan. Miloddan oldingi V asrgacha yashab ijod qilgan Esxil, Sofokl, Evripid kabi ulug' yunon dramaturglari o'z asarlarini, xususan, tragediyalarini ilohlar va qahramonlar haqidagi qadimgi miflar negizida yaratganlar. Ammo mif bir joyda qotib turmaydi, aksincha, ijtimoiy ongning o'sishi bilan u ham baravar harakatlanadi, davr muammolarini tushuntirib beradigan holga keladi. Masalan, Zevs va uning atrofidagi ilohlar shunday evrilish natijasida paydo bo'lgan. Ilohlarga qadar yer yuzini zamin-u osmon bolalari: Titanlar, dahshatli maxluqlar devlar, tog'day katta yuz qo'lliklar, oyoqlar o'rnda ulkan ilonlar osilib turadigan Gigantlar, bir ko'zli Sikloplar boshqargan ekan. Ular kimlar edi? Miflarda aytishicha, tabiatning yovuz kuchlari bo'lib, dunyoni boshqarganlar. Nihoyat, chaqmoq va osmon ilohi Zevs kelib, ularni jilovlagan va dunyo hukmronligini o'z qo'liga olgan. Zevs va uning yonidagi yangi ilohlar endi odam shaklida tasavvur etilgan. Ularga insonlik sifatlari berilgan: ilohlar xuddi odamlar kabi talashib-tortishishgan, yarashgan, har biri o'z ishi bilan mashg'ul bo'lgan, ya'ni o'ziga ajratilgan "xo'jalik ishi"ni yurgizgan. Yangi ilohlarning odamlardan birgina farqi shuki, ular abadiy yashar edilar. Ma'lumki, ibridoiy jamoa tuzumida insonlar qabila-qabila bo'lib yashaganlar. Lekin vaqtlar o'tib qabilachilik tuzumi yemrilishi va harbiy aristokrat qatlamning kuchayib borishi natijasida oddiy tabaqaning ahvoli yanada og'irlashadi. Tabiat kuchlari qarhisidagi vahima ustiga boylarning zulmi kelib qo'shiladi. Ayni shu hol o'sha vaqtida odamlarning diniy e'tiqodida tub burilish yasaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo mifologiyasi ko'proq tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishni, xudolar va tabiat kuchlarining birligini ulug'lashni ta'kidlaydi. Uning tasavvurlari ko'pincha tenglik, qahramonlik, va yashashning oddiy, lekin kuchli tomonlarini aks ettiradi. Umuman olganda, har ikkala mifologiya o'z xalqining dunyoqarashini va qadriyatlarini aks ettirgan bo'lib, ularning madaniyatlarida hayotning murakkabligi va insonning tabiatga bo'lgan munosabati orqali kuchli ma'naviy va axloqiy saboqlar beriladi. O'rta Osiyo va qadimgi Yunon mifologiyalari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar ularning madaniyatları, tarixiy sharoitları va diniy e'tiqodlariga bog'liqdir. O'rta Osiyo mifologiyasida tabiat bilan uyg'unlik, jamoaviy birlik va xudolarni tabiatning kuchlari sifatida tasvirlash ko'proq ahamiyatga ega, Yunon mifologiyasida esa xudolar ko'proq insonlarning hissiyotlari, ehtiroslari va kurashlari bilan bog'liq. Ikkala mifologiya ham

axloqiy saboqlar va qahramonlik hikoyalari orqali insoniyatning qadriyatlarini va dunyoqarashlarini aks ettiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. N. Rahmonov “O’zbek adabiyoti tarixi” “Sano-standart” nashriyoti TOSHKENT – 2017.
2. U. Hamdamov, O. Qosimov “Jahon adabiyoti” (o’quv qo’llanma).- T: “Barkamol fayz media”, 2017.
3. A. M. Gorkiy “ Adabiyot haqida” Toshkent – 1962.
4. Arxiv.uz